

## YANGI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT VA HUQUQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING KONSTITUTSIYAVIYHUQUQIY ASOSLARI

**O‘ralov Fazliddin Umid o‘g‘li**

TDYU huzuridagi M.S. Vosiqova nomidagi akademik litsey o‘quvchisi Tel: +998 99 455 72 09 | E-mail:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20305541>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati va davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining huquqiy ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada huquqiy davlat qurish yo‘lidagi transformatsion jarayonlar va sudhuquq tizimidagi o‘zgarishlar qiyosiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, huquqiy davlat, modernizatsiya, inson huquqlari, referendum, ijtimoiy davlat, qonun ustuvorligi, sud-huquq islohoti. KIRISH KIRISH

### KIRISH

Huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish har qanday sivilizatsiyalashgan davlatning oliy maqsadidir. O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yar ekan, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tubdan isloh qilish davr talabiga aylandi. 2023yil 30-aprelda o‘tkazilgan umumxalq referendumida asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimiz hayotida yangi huquqiy reallikni yaratdi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda nafaqat qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy islohotlar — bu shunchaki matnni yangilash emas, balki davlatning inson oldidagi mas‘uliyatini yangi darajaga ko‘tarishdir. Mazkur jarayonda yuridik fanlar oldida turgan asosiy vazifa — yangi normalarning hayotga tatbiq etilish mexanizmlarini ilmiy asoslab berishdan iboratdir.

### References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – Toshkent: "O‘zbekiston", 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "Tasvir", 2021.
3. Saidov A.X. Qiyosiy huquqshunoslik. Darslik. – Toshkent: "Adolat", 2020.
4. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar", 2021.
5. Azizxo‘jayev A.A. Davlat va huquq asoslari. – Toshkent, 2022.
6. Xalqaro huquq normalari va inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT nashri.
7. Sayt manbasi: [www.lex.uz](http://www.lex.uz) — O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi.